

Umumta'lim maktabining 2024-2025- o'quv yili biologiya fanini o'quvchilarining biologiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar varianti

7- sinf o'quvchisi _____

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball -10)

II Chorak

BSB-3

Amaliy mashg'ulot. Reflektor yoyini modellashtirish

Maqsad: Reflektor yoyining qismlarini modellashtirish orqali uning tuzi lishini o'rganish


1-topshiriq (4 ball)

Ishni bajarish tartibi:

- a) Oq qog'ozni olib, qaychi bilan orqa miyaning ko'ndalang kesimini tayyorlang.
- b) Po'kakni oling va uning ustiga orqa miyaning tasviri tushi rilgan qog'ozni qo'ying. So'ngra po'kakni qirqib oling
- d) Orqa miyadan chiqadigan nerv qismlarini qirqib chiqing.
- e) Orqa miyaning kapalaksimon qismini qaychi yordamida qirqib oling. Keyin po'kak ustiga qo'yib chizing. Po'kak ustiga chizilgan shaklni qirqib olib, o'rtasidan kichik teshikcha hosil qiling.
- f) Kapalaksimon qismni po'kakdan yasalgan orqa miya qismining ustiga yelim bilan joylashtiring.
- g) Teri va ishchi organ (muskul)ni po'kakdan tayyorlab oling.
- h) Tayyorlangan qismlarni bir-biriga yaqin qilib joylashtiring. Shundan so'ng bu qismlarga rangli bo'yoqlar bilan ishlov bering.
- i) Teri qavatlarini rasmdagidek bo'yang va unga mixchani kirgazib qo'ying.
- j) 10 cm keladigan ikki dona egiluvchan simni oling. Unga qog'ozni alohida-alohida qilib o'rang. Ulardan birini qizil, ikkinchisini ko'k bo'yoq yordamida bo'yang.
- k) Hosil bo'lgan qismlarni yelimlab joylashtiring.
- l) Plastilindan foydalanib neyron qismlarini hosil qiling.
- m) Reflektor yoyi modeli qismlarini yozing.

izoh: guruhlarga bo'linib ishlash, *ishni bajarish tartibi bo'yicha darslik kitobidagi 70- betdagi rasmdan foydalanish tavsiya etiladi.*

Berilgan rasm asosida 1-2-3- topshiriqlarga javob bering.



2- topshiriq *qo'lash (1 ball)* Berilgan so'zlarni rasmdagi raqamlar o'rniga quyida keltirilgan so'zlardan mosini yozing.

Foydalanish uchun so'zlar: *tez va ixtiyorsiz fikr, ongli fikr, ta'siro, retseptor, javob harakati, obyekt*

3- topshiriq *(qo'lash) (1 ball)* Rasmdagi **X** va **Y** harfi o'rniga mos keluvchi so'zni yozing

X – _____ **Y** – _____

4- topshiriq *(qo'lash) (1 ball)* Refleks yoyining qaysi tarkibiy qismlari orqamiyaga axborot yuboradi?

- A) harakatlantiruchi neyronlar
- B) sezuvchi neyronlar
- C) muskullar
- D) oraliq neyronlar

5- topshiriq *(mulohaza) (2 ball)* Matnni o'qing va savolga javob yozing.

Kichik bir tajriba o'tkazib ko'rishidan avvalroq Alibekka oq kalamush, quyon, it, maymun, turli xil niqoblar berib ko'rildi. Bolakay hech biridan qo'rqmadi (Alibek juda kichkina paytlari edi).

Alibek bir yoshga kirgan vaqtida esa bolakayni o'yin stolchasiga oq sichqoncha qo'yildi va u bilan o'ynashga ruxsat berildi. Bolakay har gal sichqonchaga qo'l uzatganda orqadan bolg'achaga temirni urib shovqin chiqarib turildi. Bolakay shovqindan qo'rqib, yig'lash bilan javob qaytarardi. Bu holat bir necha marta qaytarildi. Bir haftalar o'tib bolakayga oq sichqoncha bilan o'ynashga yana ruxsat berildi, biroq shovqin qilinmadi. Bolakay esa sichqonchani ko'rishi bilan yig'lab, orqasiga qaytdi.

Nega Alibek sichqonchani oxirgi ko'rganida yig'lab yubordi? Endi har doim sichqonchadan qo'rqadimi?

Baholash mezonl

		Jami ball
1	<p>a) ish uchun materiallar to'g'ri tanlangan bo'lsa 0,5 ball</p> <p>b) xavfsizlik qoidalariga to'liq amal qilingan bo'lsa 0,5 ball</p> <p>d) ish tartibi o'zaro hamkorlikda va to'g'ri ketma ketlikda olib borilgan bo'lsa 1 ball</p> <p>e) Reflektor yoyi modeli tayyor holda taqdim etilsa 1 ball (har bir guruh uchun bitta)</p> <p>f) bajarilgan ish rasmi ilova qilinsa 1 ball (har bir guruh uchun bitta)</p>	4 ball
2	<p>a) barcha so'zlar raqamlarga mos holda to'g'ri yozilsa 1 ball</p> <p>b) 3 tadan ortiq so'z yozilsa 0,5 ball</p> <p>d) 3 tadan kam so'z yozilsa 0 ball</p>	1 ball
3	<p>X va Y harfi o'rniga mos keluvchi so'zni yozing</p> <p>X – sezuvchi neyron Y – harakatlantiruvchi neyron</p> <p>a) Har ikkala atama to'g'ri yozilgan bo'lsa 2 ball</p> <p>b) Bitta atama to'g'ri yozilgan bo'lsa 1 ball</p>	1 ball
4	B) sezuvchi neyronlar	1 ball
5	<p>Qabul qilinadigan javoblar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - javoblar to'liq bo'lsa: - javob: Alibek tasavvurida sichqonchani ushlasa shovqin eshitalishidan qo'rqadi, unda shartli refleks paydo bo'lgan. Bu shartli refleks, vaqt o'tib unutiladi. 2 ball - javob: Alibekda sichqonchani bilan bog'liq qo'rqinchli taassurot qolgan, chunki har gal sichqonchani ushlamoqchi bo'lganda shovqin eshitalgandi. Hali yoshi ulg'aysa qo'rqmay qoladi, qayta takrorlanmasa qo'rquvi yo'qoladi 2 ball <p>Agar o'quvchi faqat jarayonni tushuntirsa yoki shartli refleksni o'ziga bog'lasa 1 ball</p> <p>Qabul qilinmaydigan javoblar: U kichkina bo'lganligi uchun qo'rqan. Yosh bolani qo'rqitmaslik kerak kabi javoblar</p>	2 ball